

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.76.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROVA MUXAYYO XUSANOVNA

**FARG‘ONA VODIYSI FLORASIDA TARQALGAN
SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE) TURKUMI TAKSONOMIYASI,
GEOGRAFIYASI VA FITOTSENOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
biological sciences**

Akbarova Muxayyo Xusanovna

Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* L. (Lamiaceae) turkumi
taksonomiyasi, geografiyasi va fitotsenologiyasi 3

Акбарова Мухайё Хусановна

Таксономия, география и фитоценология рода *Scutellaria* L. (Lamiaceae),
распространенного во флоре Ферганской долины 21

Akbarova Mukhayyo Khusanovna

Taxonomy, geography and phytocenology of the genus *Scutellaria* L. (Lamiaceae),
occurred in the flora of the Fergana Valley 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.76.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AKBAROVA MUXAYYO XUSANOVNA

**FARG‘ONA VODIYSI FLORASIDA TARQALGAN
SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE) TURKUMI TAKSONOMIYASI,
GEOGRAFIYASI VA FITOTSENOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B67 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg'inov Orzimat Turdimatovich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Xamrayeva Dilovar Tollbdjonovna
biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Azimova Dilnoz Ergashevna
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.76.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "15"-iyul kuni soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161- uy. Namangan davlat universiteti majlislar zali. Tel: (+99869) 228-85-01, faks (+99869) 228-85-02, Ye-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "4"-iyul kuni tarqatildi.
(2024-yil "4"-iyul dagi №22-raqamli reestr bayonnomasi).



A.E.Zaynabiddinov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

H.E.Ergasheva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, biologiya fanlari bo'yicha
PhD., dotsent

D.B.Dexqonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda mahalliy floralarning tur tarkibini, populyatsiyasini baholash va tabiiy zaxiralarini aniqlash, tashqi ta'sirlar natijasida populyatsiyadagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash va kamayib ketish sabablarini tahlil qilish, ularni saqlab qolish va ko'paytirish yo'llarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, kam o'rganilgan, tashqi ta'sirlar natijasida kamayib borayotgan dorivor o'simliklarni inventarizatsiyalashning xalqaro tizimi yaratilmoqda. Ro'y berayotgan turli o'zgarishlar fonida mahalliy floralardagi turlarning tarkibini aniqlash, yangi yondashuvlar asosida taksonomik tahlillarni amalga oshirish zarurati mavjud. O'simliklarning izohli zamonaviy konspektini tuzish, qaynoq nuqtalarini aniqlash, tarqalish maydonlarini o'rganish, o'simlik jamoalaridagi o'rnini asoslash hamda amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyatga ega. Bu o'rinda, dorivor va xo'jalikdagi ahamiyati yuqori bo'lgan, nisbatan kam tarqalgan o'simlik turlarining taksonomik tarkibini aniqlash, ularni tarqalishini xaritalash va zamonaviy holatini baholash dolzarb vazifalardan sanaladi.

Dunyoda dorivor o'simliklarning tur tarkibini aniqlash va taksonomik tahlil qilish, ularning biologik xususiyatlarini o'rganish, tashqi ta'sirlar natijasida populyatsiyadagi o'zgarishlarni ilmiy asoslash va kamayib ketish sabablarini tahlil qilish, shu bilan birga ularni saqlab qolish va ko'paytirish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kam o'rganilgan, tashqi ta'sirlar natijasida kamayib borayotgan o'simliklarni inventarizatsiyalashning xalqaro tizimi yaratilgan bo'lib, ularga ta'sir etuvchi omillar ko'lamini baholash asosida tabiiy zaxiralarini saqlab qolish hamda ko'paytirishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda tabiiy holda tarqalgan o'simliklarning floristik tarkibini aniqlash, zamonaviy usullarni qo'llash orqali biohujjatlashtirish, o'simliklar zaxiralarining holatini baholash, ayniqsa, yangi dori vositalari olingan, tabiiy zaxirasi va biologik xususiyatlari o'rganilmagan turlarni asoslash va monitoring olib borish uchun birlamchi baza yaratish, kamyob hamda endem turlarni saqlab qolish choralarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “O'rmonlarni qo'riqlash va muhofaza qilish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish” vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda Farg'ona vodiysida tarqalgan Lamiaceae oilasiga mansub *Scutellaria* turkumi turlarining taksonomik tarkibi va geografik xususiyatlarini aniqlash, to'r tizimli xaritalash asosida turlar xilma-xilligi va yig'malar zichligini aniqlash, o'simlik jamoalaridagi o'rnini asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentyabrdagi 409-son “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi Qonuni,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi 4670-son “Yovvoyi holda o‘svuchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Scutellaria* turkumining sistematikasi va endemizmi bo‘yicha – S.V.Yuzepchuk (1951, 1954), K.H.Rechinger (1982), A.J.Paton (1990), V.S.Pichugin (2012); senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash – O.V.Smironova (1993), L.B.Zaugolnova (1994), V.Yegen (2014); turlarning kimyoviy tarkibi – X.Shang (2010), X.Zhu et al. (2016), Z.Charari et al. (2020), J.Kasaian et al. (2020); tabiiy zaxiralari – A.Abragam (2018) va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida *Scutellaria* turkumining bioekologik xususiyatlari jumladan, morfogenез va senopopulyatsiyasi ontogenetik strukturasi o‘rganishga qaratilgan T.G.Buxasheyeva et al. (2007), A.Yu.Manyaxin (2010), M.V.Puzirkina et al. (2011), D.V.Sandanov et al. (2017), A.A.Guseva (2018) tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘rta Osiyoda *Scutellaria* turkumi turlarining tarqalishi, sistematikasi bo‘yicha tadqiqotlar M. Abdullayeva (1987, 1990); O‘zbekistonda A.I.Vvedenskiy (1961) tomonidan amalga oshirilgan. So‘nggi yillarda turkum turlarining kimyoviy tarkibi A.M.Karimov (2016, 2017), G‘.Siddiqovlar (2017) tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar Farg‘ona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlari taksonomiyasi, geografiyasi va fitotsenologiyasining xususiyatlarini ochib bera olmaydi. O‘zbekistonda *Scutellaria* turkumi turlari bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan. Shu nuqtai nazardan, o‘tkazilgan tadqiqotlar, mavjud manbalar asosida tanqidiy yondashuv hamda *Scutellaria* turkumi turlarining taksonomik xilma-xilligi, biogeografiyasi, o‘simliklar jamoasida tarqalishiga oid yangi bilimlarni shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F5-FA-0-64792 “O‘zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi” (2021-2025) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Fargʻona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* L. turkumi turlarining taksonomik tarkibini, geografik tarqalishi hamda fitotsenologiyasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Fargʻona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlarining taksonomik tarkibini aniqlash va zamonaviy konspektini tuzish;

turkum turlarining morfologik belgilarini oʻrganish asosida gerbariy va tabiiy fotosuratlaridan foydalangan holda chizma illyustratsiyasini tayyorlash;

turlarning florotsenotiplar, Oʻzbekiston (Fargʻona vodiysi qismi) botanik-geografik rayonlari va togʻ tizmalari boʻyicha tarqalishini tahlil etish;

geoaxborot tizimida (GAT) turlarning tarqalishini aks ettiruvchi toʻr tizimli xaritasini yaratish;

turkum turlarining oʻsimlik jamoalarida tarqalishini hamda fitotsenologik xilma-xilligini aniqlash.

Tadqiqotning obyeksi Fargʻona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlari.

Tadqiqotning predmeti *Scutellaria* turkumi turlarining taksonomiyasi, geografiyasi, geobotanikasi va muhofaza qilishning ilmiy asoslari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada floristikaning marshrutli, yarim statsionar, areologik, biogeografik va morfologik usullari, anʼanaviy geobotanika, shuningdek, biologik obyektlarning GAT xaritalari hamda toʻr tizimli xaritalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fargʻona vodiysida *Scutellaria* turkumining 23 turi uchrashi aniqlangan, ulardan 15 tur vodiyning Oʻzbekiston Respublikasi qismida, qolgan turlar Qirgʻiziston (8 tur) va Tojikiston (2 tur) Respublikalari mintaqalarida uchrashi asoslangan va zamonaviy konspekti tuzilgan;

ilk bor, Fargʻona vodiysida tarqalgan turlar arealining tahlili natijasida, Oʻzbekiston florasida uchun *S. picta* Juz. va *S. nepetoides* Popov ex Juz., Qirgʻiziston florasida uchun *S. kamelinii* M.N.Abdull., Tojikiston florasida uchun *S. ramosissima* Popov turlari aniqlangan.

S. adenostegia, *S. ramosissima*, *S. intermedia*, *S. comosa*, *S. pycnoclada*, *S. urticifolia*, *S. orbicularis*, *S. physocalyx*, *S. andrachnoides*, *S. kugarti* Tiyon-Shon, *S. ramosissima*, *S. comosa*, *S. ocellata*, *S. xanthosiphon*, *S. orbicularis*, *S. knorringiae* turlari Pomir-Oloy tizmalarida ham tarqalganligi isbotlangan;

Fargʻona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turkumining toʻr tizimli xaritalardagi turlar xilma-xilligi va yigʻmalar zichligi tahlil qilinib, geografik tarqalish xususiyatlari va florotsenotiplar boʻyicha faollik darajasi aniqlangan;

Scutellaria turkumi turlari vodiyl oʻsimliklar qoplaminig 4 tip, 8 kenja tip, 10 senotip, 17 formatsiya va 60 assotsiatsiyalar tarkibida uchrashi aniqlangan;

turlardan *S. adenostegia* va *S. comosa* boshqa turlarga nisbatan keng diapazoniga tarqalganligi asoslangan, adir mintaqasi oʻsimlik jamoalarida ular edifikatorligidagi assotsiatsiyalar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Fargʻona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlarining fitotsenotiplar tarkibida uchrash koʻrsatkichiga koʻra 4 ta toifa asosida tasniflangan va florotsenotiplar boʻyicha faollik darajasi baholangan;

Scutellaria turkumi kamyob va dorivor turlaridan oqilona foydalanish hamda muhofazaga muhtoj populyasiyalarini samarali muhofaza choralarini tashkil etish maqsadida Fargʻona vodiysida tarqalgan turkum turlarining toʻr tizimli xaritalari, maʼlumotlar bazasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada klassik va zamonaviy usullarni qoʻllash orqali olingan natijalarning nazariy maʼlumotlarga mos kelishi, ilmiy tadqiqot natijalari respublika hamda xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilganligi va yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda dala tadqiqotlari davomida yigʻilgan oʻsimliklarning gerbariy namunalari Oʻrta Osiyo hududida yetakchi hisoblangan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika institutining Oʻzbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ilk bor Fargʻona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlariga hamda geografik tarqalishiga aniqlik kiritilganligi, turkum turlarining zamonaviy xalqaro tizim asosida tahlil qilinganligi, morfologik belgilari boʻyicha diagnostik tahliliga asoslangan chizma illyustratsiyasi tayyorlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Scutellaria* turkumi turlari boʻyicha tayyorlangan GAT xaritalari va kadastri Namangan va Fargʻona viloyatlarining oʻsimlik qoplamidagi mazkur turkum turlarini muhofaza qilish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, kelgusida kamyob, yoʻqolib borayotgan turlar populyatsiyalari monitoringini yoʻlga qoʻyishda asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fargʻona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* L. turkumi taksonomiyasi, geografiyasi va fitotsenologiyasi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Fargʻona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlarining zamonaviy holati, tarqalishini aks ettirgan GAT xaritalari va muhofazasiga doir maʼlumotlar Namangan va Fargʻona viloyatlari Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari amaliyotiga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligining 2023-yil 7-sentyabrdagi 03-03/3-4524-son maʼlumotnomasi). Natijada, *Scutellaria* turkumi populyasiyalari holatini monitoring qilish va kadastrini ishlab chiqish imkonini bergan;

Fargʻona vodiysidagi tadqiqot hududlaridan yigʻilgan 450 dan ortiq nusxadagi *Scutellaria* turkumi turlarining gerbariy namunalari Botanika instituti Oʻzbekiston Milliy gerbariyasi (TASH) noyob ilmiy obyektiga topshirilgan (Oʻzbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasining 2020-yil 2-dekabrda 4/1255-3711-son ma'lumotnomasi). Natijada, turlarning yangi gerbariy namunalari TASHning O'rta Osiyo bo'limi kolleksiyasini sezilarli darajada kengaytirgan, Farg'ona vodiysida uchraydigan o'simlik turlarini, geografik areallarini va ekologik makonlarini zamonaviy holatini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zuriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Scutellaria* L. turkumi turlari bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili, tadqiqot obyekti va metodlari**" deb nomlangan birinchi bobining birinchi bo'limida *Scutellaria* turkumi turlari bo'yicha olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Mazkur bo'limda turkumning taksonomiyasi, sistematikasi, endemizmi, ekologiyasi va ayrim turlarning tarqalishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Bobning ikkinchi bo'limida tadqiqot obyekti va metodlari keltirilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona vodiysi florasida (O'zbekiston qismi) tarqalgan *Scutellaria* turkumining turlari olingan.

Dissertatsiyaning "**Farg'ona vodiysi florasidagi *Scutellaria* turkumining taksonomik tarkibi**" deb nomlangan ikkinchi bobida Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan turkum turlarining konspekti, turlarning morfologik va taksonomik belgilari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bobning birinchi bo'limi Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan turlarning konspektiga bag'ishlangan. Konspektni tuzishda 2019-2023-yillar davomida olib borgan tadqiqotlarida yig'ilgan ma'lumotlar, internet axborot-resurs manbalari hamda yirik gerbariy (MW, TASH, LE, FR, TAK) fondlarida saqlanayotgan namunalardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. Konspektni yaratishda, T.X.Xudoyberdiyev (1995) tomonidan "Губоцветные в растительном покрове Ферганской долины" mavzusida olib

borilgan tadqiqot ishi muhim asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ko'zga tashlandi, T.X.Xudoyberdiev (1995) Farg'ona vodiysida *Scutellaria* 27 turini keltirgan. Lekin keltirilgan ayrim turlar *S. oligodonta* Juz., *S. microphysa* Juz., *S. glabrata* Vved., *S. adsurgens* Popov, *S. microdasys* Juz., *S. leptosiphon* Nevski, *S. przewalskii* Juz. hamda *S. paulsenii* Briq. areali Farg'ona vodiysi hududidan tashqari mintaqalarda uchrashi qayd etilgan. Keltirilgan ayrim turlarning adabiyotlarda berilgan areallariga e'tibor qaratisa, *S. oligodonta* Issiq ko'l atroflari, Terskay Olatog'i, Ketmentog', Qirg'iz Olatog'i, Talas Olatog'i, Norin daryosi havzasining o'rta oqimida, *S. paulsenii* Oloy vodiysi, Sharqiy Pomir mintaqalarida, *S. microphysa* Turkiston, Zarafshon va Hisor tizmalarida, *S. glabrata* Pomir-Oloyning Turkiston, Nurota, Zarafshon va Hisor tizmalarida, *S. adsurgens* Qoratog', Talas Olatog'i, Ugom, Qurama tizmalarida, *S. microdasys* G'arbiy Tiyonshonning Talas Olatog'i, Qorjontog' va Ugom tizmalarida, *S. leptosiphon* Zarafshon va Hisor tizmalarida uchrashi keltirilgan (Abdullaeva, 1987). T.X. Xudoyberdiev (1995) tomonidan keltirilgan ma'lumotlarda *S. oligodonta* Farg'ona tizmasida, *S. paulsenii* Farg'ona va Oloy tizmalarida, *S. microphysa* Oloy tizmasi, *S. glabrata* Turkiston va Mog'ul tog'da, *S. adsurgens* Turkiston va Mog'ul tog'da, *S. microdasys* Chotqol tizmasida, *S. leptosiphon* Oloy tizmasida uchrashini keltirib o'tgan, lekin turni shu mintaqalarda uchrashini tasdiqlovchi gerbariy namunasi yoki birorta asos mavjud emas. Shu bilan birga so'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlar va olib borilgan tadqiqot ishlarida ham mazkur turlar Farg'ona vodiysi qismida uchrashi to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan. Misol tariqasida K.Sh. Tojibayev (2012) G'arbiy Tiyonshon florasida uchun *S. microdasys* turini Qorjontog' va Ugom tizmalarida, *S. adsurgens* turini Qorjontog', Ugom, Pskom va Chotqol tizmalarida uchrashini keltirgan. G.A. Lazkov (2016) *S. paulsenii* Qirg'iziston florasida Jung'or-Tiyonshon-Oloy va Qashqar provinsiyalarida uchrashini keltirib o'tgan.

Olib borilgan dala tadqiqotlari, fondlarda saqlanayotgan namunalarni ko'rishimiz orqali Farg'ona vodiysi florasida *Scutellaria* turkumining 23 turi tarqalganligi ma'lum bo'ldi, bulardan 15 tur O'zbekiston qismida, qolgan 8 tur Qirg'iziston va Tojikiston floralarda tarqalgan. Farg'ona vodiysi florasida *Scutellaria* konspektida har bir tur uchun quyidagi ketma-ketlikda ma'lumotlar keltirilgan: turlarning lotincha va o'zbekcha nomi, ilk chop qilingan adabiyoti (POWO, 2023), botanik tavsifi, fenologiyasi, ekologiyasi, umumiy tarqalishi, tadqiqot hududida uchrashi to'g'risida to'liq ma'lumotlar jamlangan. Turkumning konspektini tuzish jarayonida turlarni tarqalishiga asosan, O'rta Osiyoning tog' qismidan tashqariga chiqmaydigan turlarning ko'p ekanligi, bu turlar umumiy O'rta Osiyoga xosligini ko'rsatdi. Farg'ona vodiysidagi turlar Tog'li O'rta Osiyoda har ikki mintaqada tarqalganligi bu ikki hudud floralarini o'zaro bog'lab turish vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Bobning ikkinchi bo'limi Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan turkum turlarining hayotiy shakli tahliliga qaratilgan bo'lib, K. Raunkiaer (1934) hamda I.G.Serebryakov (1962) klassifikatsiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Scutellaria turkumi turlarining A.Paton va S.V. Yuzepchuk bo'yicha taksonomiyasi

№	Turlar	Yuzepchuk (1954) bo'yicha			Paton (1990) bo'yicha							
		ostturkum	seksiya	ostseksiya	ostturkum	seksiya	ostseksiya					
1	<i>S. galericulata</i>	<i>Euscutellaria</i>	<i>Galericularia</i>	<i>Galericularia</i>	<i>Apeltanthus</i>	<i>Scutellaria</i>	<i>Scutellaria</i>					
2	<i>S. ramosissima</i>		<i>Lupulinaria</i>			<i>Ramosissima</i>	<i>Lupulinaria</i>	<i>Lupulinaria</i>				
3	<i>S. intermedia</i>											
4	<i>S. adenostegia</i>											
5	<i>S. comosa</i>											
6	<i>S. oxystegia</i>											
7	<i>S. picta</i>											
8	<i>S. nepetoides</i>											
9	<i>S. haematochlora</i>											
10	<i>S. urticifolia</i>											
11	<i>S. iskanderi</i>											
12	<i>S. pycnoclada</i>											
13	<i>S. cordifrons</i>											
14	<i>S. filicaulis</i>											
15	<i>S. ocellata</i>											
16	<i>S. knorringiae</i>											
17	<i>S. xanthosiphon</i>											
18	<i>S. kugarti</i>					<i>Alpinae</i>						
19	<i>S. physocalyx</i>	<i>Cystaspis</i>	<i>Cystaspis</i>	<i>Cystaspis</i>	<i>Apeltanthus</i>		<i>Cystaspis</i>					
20	<i>S. immaculata</i>	<i>Apeltanthus</i>	<i>Apeltanthus</i>	<i>Apeltanthus</i>			<i>Apeltanthus</i>	<i>Apeltanthus</i>				
21	<i>S. kamelinii</i>											
22	<i>S. orbicularis</i>											
23	<i>S. andrachnoides</i>											

Farg'ona vodiysida tarqalgan *Scutellaria* turlarining K. Raunkiaer (1934) tasnifiga ko'ra, 15 turi xamefitlar va 8 turi gemikriptofitlar ekanligi aniqlandi.


I.G. Serebryakov (1962) tomonidan ishlab chiqilgan tasnif bo'yicha tahlil qilinganda, 1 tur haqiqiy o'rmalovchi butacha, 2 tur kaudeksli o'q ildizli polikarp, 5 tur o'rmalovchi o'tsimon polikarp, 2 tur o'rmalovchi yarim buta, 12 tur tik o'suvchi yarim buta hamda 1 tur uzun ildizpoyali o'tsimon polikarp ekanligi aniqlandi.

Bobning uchinchi bo'limida turkum turlarining morfologik va taksonomik belgilari tahlil qilingan. Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlarining morfologik belgilari asosida tahlillari amalga oshirildi. Turkumning so'nggi taksonomiyasi A.Paton (1990) tomonidan ishlab chiqilgan tizim bo'yicha 2 ostturkum, 3 seksiya, 4 ostseksiyaga mansub ekanligi aniqlandi. S.V. Yuzepchuk (1954) bo'yicha esa turkum 3 ostturkum, 4 seksiya, 6 ostseksiyaga ajratilgan (1-jadval).

Tadqiqot ishining "**Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turlarining geografik tahlili**" deb nomlangan uchinchi bobi turkum turlarining O'zbekiston botanik-geografik rayonlari (Farg'ona qismida), tog' tizmalari, balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishi hamda to'r tizimli xaritalash tahlillariga bag'ishlangan.

Bobning birinchi bo'limi turlarning O'zbekiston botanik-geografik rayonlarida tarqalishiga (Farg'ona vodiysi qismi) bag'ishlangan bo'lib, G'arbiy-Tiyonshon okrugining Arashan BGR da *S. adenostegia*, *S. pycnoclada*, *S. ramosissima*; Chorkesar BGR da *S. galericulata*, *S. intermedia*, *S. comosa*,



S. adenostegia, *S. ramosissima*, *S. pycnoclada*, *S. iskanderi*; Fargʻona okrugining Janubiy-Chotqol BGR da *S. comosa*, *S. adenostegia*, *S. immaculata*, *S. oxystegia*; Markaziy Fargʻona okrugining Qayroqqum-Yozyovon BGR da turkumning *S. galericulata* hamda Fargʻona-Oloy okrugining Sharqiy-Oloy BGR da *S. adenostegia*, *S. comosa*, *S. immaculata*, *S. galericulata*, *S. nepetoides*, *S. ocellata*, *S. oxystegia*, *S. picta*, *S. filicaulis*; Gʻarbiy Oloy BGR da *S. comosa*, *S. adenostegia*, *S. immaculata*, *S. oxystegia* turlari tarqalganligi aniqlandi. Sharqiy-Oloy hamda Chorkesar BGR turlarga boyligi maʼlum boʻldi, bu esa mazkur mintaqalarda togʻ va togʻ oldi hududlarning koʻpligi bilan izohlanadi.



1-rasm. Fargʻona vodiysi florasidagi *Scutellaria* turlarining xilma-xillik (*species richness*) va yigʻmalar zichligi (*collection density*) boʻyicha toʻr tizimli xaritasi

Bobning ikkinchi boʻlimida Fargʻona vodiysi toʻr tizimli xaritasida turkum turlarining tarqalishi keltirilgan. Tadqiqotda mahalliy flora tarkibidagi polimorf turkumlardan sanalgan turkum turlarining kvadratlar kesimida turlar xilma-xilligi (*species richness*, SR) va gerbariy yigʻmalar zichligi (*collection density*, CD) koʻrsatkichlari tahlil qilindi. Maʼlumotlarni toʻr tizimli xaritada aks ettirish uchun Fargʻona vodiysining Oʻzbekiston qismida tarqalgan turkum turlariga mansub 15 turning 419 ta geobogʻlangan gerbariy namunalari foydalanilgan. Xaritalarni yaratishda ikki asosiy koʻrsatkich: kvadratlar boʻyicha aniqlangan turlar boyligi va gerbariy namunalarning soni asos qilib olingan. Turkum turlarining gerbariy namunalari mavjud indekslar 84 ta boʻlib, Fargʻona vodiysiga tegishli boʻlgan kvadratlar 9 % ni tashkil etadi. Turlar boyligi boʻyicha maksimal koʻrsatkich 7 tani, yigʻmalar zichligi boʻyicha 46 tani tashkil etadi. Maʼlumotlar mavjud indekslarning oʻrtacha turlar boyligi 1,4 ga teng. Yigʻmalar zichligi boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkich 5,1 namunani tashkil qiladi (1-rasm). Toʻr tizimli xaritada turlar boyligi boʻyicha 73 ta indeksning koʻrsatkichi 1-2 turga, 7 ta indeksda 3-4 turga va 1 ta indeksda 7 turga teng. Indeksning yigʻmalar zichligi darajasiga koʻra natijalari quyidagicha taqsimlangan: 0 qiymatga ega indekslar 823 ta,


1-5 ko'rsatkichga ega bo'lgan kvadratlar 60 ta, 6-10 gerbariy namunalari mavjud indekslar 16 ta, 10 dan yuqori yig'malar bor bo'lgan kvadratlar 8 tani tashkil etadi (1-rasm). Turkum turlari orasida *S. chaematochlora* (CQ276) juda tor tarqalish arealiga ega bo'lib, tur to'g'risidagi ma'lumot faqat bitta indeksda qayd etilgan. *S. oxystegia* 38 ta, *S. adenostegia* 23 ta, *S. comosa* 22 ta kvadratlarda uchraydi va ularni *Scutellaria* turkumi ichida Farg'ona vodiysida eng keng tarqalgan turlar sifatida e'tirof etish mumkin.



2-rasm. Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turlarining tog' tizmalari bo'yicha tarqalishi

Bobning uchinchi bo'limida turkum turlarining tog' tizmalari va balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishi keltirilgan. Farg'ona vodiysida tarqalgan turlarning tog' tizmalarida tarqalishi bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashda O'rta Osiyo o'simliklar aniqlagichi asos qilib olindi. Turlarning geografik tahlilini amalga

oshirishdan asosiy maqsad, hudud florasida tarqalgan turkum turlarining umumiy tarqalishi qaysi tizmalarda ekanligini aniqlashdan iborat. Bunda har bir uchraydigan tizmalar va ulardan terilgan namunalar kollektorlar va terilgan vaqti bilan keltirilgan. Natijada ayrim turlarning areali adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan kengroq ekanligi aniqlandi (2-rasm).



3-rasm. *Scutellaria* turkum turlarining Farg'ona vodiysi tizmalari bo'yicha tarqalishi

Bo'limning ikkinchi qismi turlarning balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimlanishiga bag'ishlangan. Balandlik mintaqalari akademik Q.Z.Zokirov (1955) taklif etgan tasnif asosida amalga oshirildi. Turlarning umumiy soni (23 tur) va xususan, endemizm (7 tur) bo'yicha G'arbiy Tiyon-Shon tizimidagi tog' tizmalari ustunlik qiladi. Farg'ona (16 tur), Chotqol (13 tur) va Qurama (11 tur), Pomir-Oloyda tarkibi bo'yicha yetakchi turlar spektrini Turkiston (14 tur) va Oloy (12 tur) tizmalari boshqaradi (3-rasm).

Tog'li O'rtaosiyo provinsiyasi turkumning O'rta Osiyo ayrim endem seksiyalari va ostturkumlarining kelib chiqish markazlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi. Xususan, *Lupulinaria* seksiyasi hamda *Apeltanthus* ostturkum turlari faqat G'arbiy Tiyon-Shon va Pomir-Oloy tizmalarida uchraydi. Hozirga qadar bu taksonlarning boshqa tizmalarda tarqalganligi yoki dunyoning boshqa mintaqalarida uchrashi qayd etilmagan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tik mintaqalar bo'ylab yuqoriga ko'tarilgan sari Tog'li O'rta Osiyoning avtoxton turlarining salmog'i ko'payib boraveradi. Adir (3;13%) va adir-quyi tog' (11;48%) mintaqasidagi turlar adirlar florasining quyi tog' bilan mustahkam aloqasini anglatadi. Quyi tog' mintaqasi esa o'z navbatida adirliklarni tog'ning baland qismi bilan bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini bajaradi, quyi tog'da 8 ta tur uchraydi (jami turlarning 35%). Quyi tog' va o'rta tog' mintaqasi uchun xos bo'lgan turlarga vodiyning barcha tizmalarida tarqalgan Tog'li O'rtaosiyo endemlari *S. comosa*, *S. adenostegia* hamda Pomir-

Oloy endemi *S. orbicularis* kiradi. Vodiydagi turkum turlarining mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishi bilan areal tiplari orasida korrelyativ aloqa mavjud, ya’ni tog‘ mintaqasi turlari G‘arbiy Tiyon-Shon, Pomir-Oloy hududlari bilan chegaralanadigan mahalliy tur hosil bo‘lish jarayoni hosilasi sanaladi.

2-jadval

Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* turkumi turlarining areologik taqsimlanishi


№	Asosiy areal sinflari	Areal tiplari	Turlar	Ts	(%)	Jami (%)
1.	G‘arbiy tiyonshon	Sharqiychoqol	<i>S. kamelinii</i>	1	4%	7 (30)
2.		G‘arbiy tiyonshon	<i>S. pycnoclada</i>	1	4%	
3.		Sharqiyfarg‘ona	<i>S. urticifolia, S. knorringiae, S. kugarti, S. andrachnoides</i>	4	18%	
4.		Janubiyg‘arbiy-tiyonshon	<i>S. haematoclora</i>	1	4%	
5.	Pomir Oloy	Shimoliy Oloy	<i>S. nepetoides</i>	1	4%	5 (22)
6.		Pomiroloy	<i>S. picta, S. ocellata, S. physocalyx, S. orbicularis</i>	4	18%	
7.	Tog‘li o‘rtaosiyo	G‘arbiy tiyonshon-g‘arbiy pomiroloy	<i>S. intermedia, S. comosa, S. oxystegia, S. iskanderi, S. immaculata</i>	5	22%	10 (44)
8.		G‘arbiy tiyonshon-shimoliy pomiroloy	<i>S. cordifrons, S. ramosissima</i>	2	9%	
9.		Sharqiyfarg‘ona-shimoliy pomiroloy	<i>S. xanthosiphon</i>	1	4%	
10.		G‘arbiy tiyonshon-pomiroloy	<i>S. filicaulis, S. adenostegia</i>	2	9%	
11.	Paleoarktik	Yevro-sibir-qadimiy o‘rtayerdengizi	<i>S. galericulata</i>	1	4%	1 (4)

Uchinchi bobning to‘rtinchi bo‘limi turlarning areal tiplari bo‘yicha tahliliga bag‘ishlangan. Turkum turlari 4 ta areal sinflari tarkibiga kiradigan 11 areal tiplariga mansub ekanligi aniqlandi, bular G‘arbiy tiyonshon (7), Pomir-Oloy (5), Tog‘li o‘rtaosiyo (10) hamda Paleoarktik (1) areal sinflari (2-jadval). *Scutellaria* turkumining vodiy flora uchun keltirilayotgan 23 turdan 22 tasi O‘rta Osiyoning endemlari hisoblanadi. Ularning ulushiga jami o‘rganilgan turlarning 96% qismi to‘g‘ri kelishi, ayniqsa O‘rta Osiyoning endem turlari, ya’ni mahalliy tur hosil bo‘lish o‘choqlari sifatida e’tirof etiladi. Vodiyning turlar xilma-xilligi bo‘yicha Pomir-Oloy qismida Oloy tizmasi alohida o‘rinni egallaydi. Bu hudud ham tor tarqalish doirasiga ega bo‘lgan endem turlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Aynan shu tizma misolida tarqalgan turlarning G‘arbiy-Tiyonshon bilan mustahkam aloqalarini ko‘rish mumkin (2-jadval).

Dissertatsiyaning “*Scutellaria* turkumi turlarining fitotsenologiyasi” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiqot hududidagi *Scutellaria* turlarining fitotsenologiyasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Farg‘ona vodiysining turli hududlarida 2019-2023 yillar oralig‘ida olib borilgan tadqiqotlarda turkum turlari tarqalgan maydonlar belgilandi, turlar ishtirok etgan jamoalarda asosan tur o‘sayotgan maydonning tuprog‘i, o‘simliklarni yerni qoplanish darajasi, o‘simlik

jamoasidan edifikator tur (jamoaning nomi), ekologiyasi va floristik tarkibiga e'tibor qaratilgan.

Bobning turkum turlarining florotsenotiplar bo'yicha tahlili deb nomlangan birinchi bo'limida, turkum turlarining vodiydagi asosiy florotsenotiplarda tarqalishi tahlil qilingan. Tadqiqot obyektlari 4 ta florotsenotip guruhlariga mansub bo'lgan 10 ta florotsenotiplarda uchrashi aniqlandi.



4-rasm. *Scutellaria* turlarining fitotsenosikliga ko'ra faollik darajasi


Turlar uchun eng qulay muhit archazor, kseroxazmofiton hamda eron-turon friganoid florotsenotiplariga tog'ri keldi. Turkum turlari turli xil o'simlik jamoalari bo'ylab taqsimlanishining tahlili ular fitotsenotsiklini aniqlash imkoniyatini beradi. Tahlil natijasida o'rganilgan turlarning asosiy qismi kseroxazmofiton, eron-turon friganoidlari, kserolitofiton, archazorlar, shiblyak kabi Tog'lio'rtaosiyo provinsiyasi uchun xos bo'lgan florotsenotiplarga mansubligi aniqlandi. Bu esa Farg'ona vodiysi sharoitida *Scutellaria* turkumiga mansub turlarning shakllanishida Tog'li O'rta Osiyo muhim ahamiyatga ega bo'lgan hudud ekanligidan dalolat beradi (4-rasm).

3-jadval


Scutellaria turlarining o'simlik tiplari bilan o'zaro aloqadorligi

№	Florotsenotiplar	Turlar soni (xos turlar soni)	Boshqa florotsenotiplar bilan umumiy turlar soni									
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Archazorlar	8 (2)	+	2	2	2	0	1	1	6	1	0
2	Shiblyak	5 (0)	2	+	4	2	1	1	2	5	0	1
3	Eron-turon friganoidlari	9 (1)	2	4	+	4	1	1	2	8	0	1
4	Eron-turon yarimsavannasi	5 (0)	2	2	4	+	1	1	1	5	1	1
5	Efemeretum	1 (0)	0	1	1	1	+	0	0	1	0	1
6	Olajinslar o'simlik qoplami	2 (1)	1	1	1	1	0	+	1	2	0	0
7	Kserolitofiton	8 (3)	1	2	2	1	0	1	+	5	1	0
8	Kseroxazmofiton	16 (2)	6	5	8	5	1	2	5	+	1	1
9	Kriopetrofiton	3 (1)	1	1	1	1	0	0	2	2	+	0
10	Antropofiton	1 (0)	0	1	1	1	1	0	0	1	0	+

Tadqiqotlar natijasida ilk bor *Scutellaria* turlarining fitotsenotiplar tarkibida uchrash ko'rsatkichiga ko'ra faollik darajasi aniqlandi hamda 4 guruhga ajratilib tasniflandi: eng faol turlar (6 ta va undan ortiq florotsenotiplar), faol turlar (4-5 ta), o'rtacha faol turlar (2-3 ta) hamda faollik darajasi past bo'lgan turlar (1ta). Turkum turlari orasida eng faol 2 tur (umumiy tarkibning 9%), faol – 3 tur (13%), o'rtacha faol – 9 tur (39%), passiv – 9 tur (39%) ni tashkil etdi. Fitotsenosikli bo'yicha faollik darajasi past va o'rtacha faol turlarning ko'pligi ayrim florotsenotiplar va ularning ichida alohida ekotoplarga moslashgan endem va subendem turlarning ko'pligini ko'rsatadi (3-jadval).



5-rasm. A. *S. immaculata* Nevski ex Juz.; B. *S. comosa* Juz. (Akbarova, 2022)



6-rasm. *S. comosa* Juz. va *S. adenostegia* Briq. edifikatorlari ishtirokidagi o'simliklar jamoasi (Akbarova, 2019)

Bobning ikkinchi bo'limi *Scutellaria* turkumi turlarining fitotsenologiyasiga bag'ishlangan. Olib borilgan tadqiqotlarda boshqa turlarga nisbatan *S. adenostegia*, *S. comosa*, *S. oxystegia*, *S. immaculata* kengroq tarqalganligi aniqlandi mazkur turlar ayrim jamoalarda edifikator yoki subedifikatorlar qatoridan o'rin olgan (5-rasm). *S. comosa* Namangan viloyati Kosonsoy o'rmon xo'jaligi yerlarida shuvoq aralash-ko'kamaronzor o'simlik jamoasida, *S. adenostegia* Namangan

viloyati Pop tumani Madaniyat qishlog'i atrofidagi adirliklardagi efemerli-shuvoqli-ko'kamaronzor o'simliklar jamoasida edifikator sifatida uchrashi aniqlandi (6-rasm). Olib borilgan izlanishlardan xulosa qilinganda, turkum turlari vodiylar o'simliklar qoplamlarining 4 tip, 8 kenja tip, 10 senotip, 17 formatsiya va 60 assotsiatsiyalar tarkibida tarqalganligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Farg'ona vodiysi florasidagi *Scutellaria* turkumi turlarining fitotsenologiyasi

Tip	Adir o'simliklari - <i>Imioreophyton (Adyrophyton)</i>
Kenja tip	Argilofil (efemer o'simliklar) - <i>Argillophyta</i>
Senotip	Efemer o'tzorlar - <i>Ephemeropoia</i>
Formatsiya	Yaltirboshzor- <i>Bromuseta tectorum</i>, Quyonarpazor- <i>Hordeta leporinae</i>
Assotsiatsiya (6)	Kakrali-quyonarpali-qasmaldoqzor, Ko'kamaronli-chitirli-qo'ng'irboshli-yaltirboshzor, Ko'kamaronli-shuvoqli-rangli-quyonarpazor, Yantoqli-yaltirboshli-qo'ng'irboshli-qiltiqzor, Kakrali-ko'kamaronli-yaltirboshzor, Pechakli-ko'kamaronli-yaltirboshzor
Tip	Adir o'simliklari - <i>Imioreophyton (Adyrophyton)</i>
Kenja tip	Adir qurg'oqchil o'simliklari - <i>Thermoxerophyta</i>
Senotip	Kserofil yarim butachazorlar - <i>Imioriohemithamnica</i>
Formatsiya	So'g'd shuvoqzori - <i>Artemisieta sogdiana</i>, Farg'ona shuvoqzori - <i>Artemisieta ferganensis</i>
Assotsiatsiya (14)	Shuvoq aralash-ko'kamaronzor, Efemerli-shuvoqli-ko'kamaronzor, Ko'kamaronli-toshbaqao'tli-shuvoqzor, Har-hil o'tli-aralash yarimbutachali-shuvoqzor, Har xil o'tli-shuvoqzor, Efemeroidli – efemerli-shuvoqzor, Xaprili-tuyasingrenli-shuvoqzor, Efemerli-sho'rakli-shuvoqzor, Har xil o'tli-xaprili-shuvoqzor, Har-hil o'tli-aralash yarimbutali-shuvoqzor, Shirachli-xaprili-shuvoqzor, Efemerli-xaprili-shuvoqzor, Efemerli-kovulli-shuvoqzor, Efemerli-izenli-shuvoqzor
Tip	Adir o'simliklari - <i>Imioreophyton (Adyrophyton)</i>
Kenja tip	Adir dasht o'simliklari - <i>Imioreophyta (Adyrophyta)</i>
Senotip	Adir o'tzorlari - <i>Imioriopoia</i>
Formatsiya	Tukli bug'doyiqzor - <i>Agropyreta trichophorae</i>
Assotsiatsiya (6)	Yirik o'tli-buta aralash-bug'doyiqzor, Aralash o'tli-shuvoqli-bug'doyiqzor, Aralash o'tli-efemerli-efemeroidli-bug'doyiqzor, Yirik o'tli-shuvoqli-buta aralash-bug'doyiqzor, Butali-shashirli-bug'doyiqzor, Shairli-efemerli-buta-aralash-bug'doyiqzor
Tip	O'rta tog' o'simliklari (Oriofil) - <i>Medioreophyton (Oreophyton)</i>
Kenja tip	Tog' mezofil o'simliklari - <i>Oreomesophyta</i>
Senotip	Archazorlar- <i>Arceudodendra</i>
Formatsiya	Qoraarchazor- <i>Junipereta zeravschanicae</i>
Assotsiatsiya (6)	Butali-betagali qoraarchazor, Aralash o'tli bug'doyiqli – qoraarchazor, Aralash o'tli - tog' jambilli - kiyiko'tli - butali-qoraarchazor, Butali-shashirli-qoraarchazor, Shuvoqli-betagali-qoraarchazor, Shuvoqli-aralasho'tli-qoraarchazor

Tip	Oʻrta togʻ oʻsimliklari (Oriofil) - <i>Mediocreophyton (Oreophyton)</i>
Kenja tip	Togʻ kserofil oʻsimliklari - <i>Oreoxerophyta</i>
Senotip	Kserofil daraxt va butazorlar – <i>Xerodendra</i> va <i>Xerothermna</i>
Formatsiya	Aralash butazorlar- <i>Mixtofruticeta</i>
Assotsiatsiya (6)	Aralash oʻtli-efemerli-daraxt aralash butazor, Efemerli-shuvoqli-tuyasingrenli-butazor, Aralash oʻtli-daraxt aralash-butazor, Chalovli-izenli-qaragʻanli-butazor, Shuvoqli-bugʻdoyli daraxt aralash-butazor, Shuvoqli-har-hil oʻtli-xaprili-butazor
Tip	Oʻrta togʻ oʻsimliklari (Oriofil) - <i>Mediocreophyton (Oreophyton)</i>
Kenja tip	Togʻ oldi gipsofit oʻsimliklari - <i>Oreogypsophyta</i>
Senotip	Ola jinslar oʻsimliklari- <i>Oreogypsophila</i>
Formatsiya	Tuyatovonzor - <i>Zygophylleta atriplicoida</i>, Olabutazor - <i>Atriplexeta monetae</i>, Mattiolazor - <i>Matthioleta obovatae</i>
Assotsiatsiya (6)	Shuvoqli-shoʻrakli-tuyatovonzor, Shoʻrakli-tuyatovonzor, Efemerli-shoʻrakli-tuyatovonzor, Efemerli-shoʻrakli-olabutazor, Tuyatovonli-shoʻrakli-olabutazor, Shuvoqli-mattiolazor
Tip	Oʻrta togʻ oʻsimliklari (Oriofil) - <i>Mediocreophyton (Oreophyton)</i>
Kenja tip	Togʻ petrofil oʻsimliklari - <i>Oreopetrophyta</i>
Senotip	Kserolitofiton - <i>Xerolithophyton</i>
Formatsiya	Tikanpechakzor - <i>Convolvuleta tragacanthoida</i>, Boʻzboshzor- <i>Dracocephaleta diversifoliae</i>, Qoya betagazori- <i>Festuceta rupicola</i>, Qoraboshzor - <i>Carexeta koshewnikowii</i>
Assotsiatsiya (6)	Shuvoqli-xolmantli(qalampirgulli)-tikanpechakzor, Burchoqli-har-hil oʻtli-boʻzboshzor, Bugʻdoyli-shuvoqli-boʻzboshzor, Aralash oʻtli-kirpioʻtli-astragalzor, Har-hil oʻtli-zirakoʻtli-betagazor, Mehriyohli-qoʻnʻgʻ iroqgulli-qoraboshzor
Tip	Oʻrta togʻ oʻsimliklari (Oriofil) - <i>Mediocreophyton (Oreophyton)</i>
Kenja tip	Oreopetrofil oʻsimliklar - <i>Oreopetrophyta</i>
Senotip	Kseroxazmofiton- <i>Xerochasmophyton</i>
Formatsiya	Qoraboshzor - <i>Carexeta kokanica</i>, Shuvoqzor - <i>Artemiseta diffusae</i>
Assotsiatsiya (6)	Xaprili-efemerli-shuvoqzor, Efemerli-boqlali-shuvoqzor, Boʻzboshli-efemeroidli-shuvoqzor, Kampirchoponli-xaprili-shuvoqzor, Efemerli-shuvoqzor, Mehriyohli-qoʻnʻgʻ iroqgulli-qoraboshzor
Tip	Ekstrozonal va azonal tiplar Dasht oʻsimliklari (Yevroosiyo)- <i>Stepon</i>
Kenja tip	Togʻ (ekstrozonal) dasht oʻsimliklari- <i>Oreostepa</i>
Senotip	Kriopetrofiton - <i>Cryopetrophyton</i>
Formatsiya	Valeziy betagazori- <i>Festuca valesiaca</i>
Assotsiatsiya (4)	Aralash oʻtli-shuvoqli-betagazor, Oksitropsli-ligulariyali-betagazor, Qoraboshli-betagazor, Aralash oʻtli-qoraboshli-betagazor

XULOSALAR

“Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* L. (Lamiaceae) turkumi taksonomiyasi, geografiyasi va fitotsenologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor, Farg‘ona vodiysi florasida *Scutellaria* turkumining gerbariy namunalari bilan tasdiqlangan 23 turi aniqlandi. Ulardan 15 tur O‘zbekiston Respublikasi qismida, 8 tur Tojikiston va 5 tur Qirg‘iziston Respublikalari mintaqalarida uchrashi aniqlandi. Turkum turlarining izohli konspekti tuzildi, chizma illyustratsiyasi tayyorlandi.

2. Hudud florasida tarqalgan *Scutellaria* L. turkumining taksonomik tahlili amalga oshirildi. Bunga ko‘ra, turkum turlari 2 ostturkum, 3 seksiya, 4 ostseksiyaga mansubligi aniqlandi, shu bilan birga har bir turning turdoshi va o‘zaro sistematik yaqinligiga aniqlik kiritildi.

3. Farg‘ona vodiysidagi *Scutellaria* turkumi turlarining geografik tahlili amalga oshirildi, natijada *S. picta* Juz., *S. nepetoides* Popov ex Juz. O‘zbekiston florasida, *S. kamelinii* M.N.Abdull. Qirg‘iziston florasida hamda *S. ramosissima* Popov Tojikiston florasida tarqalganligi aniqlandi. Mazkur floristik topilmalar mazkur davlatlar hududi florasini ro‘yxatini boyitishga xizmat qiladi.

4. Botanik-geografik rayonlar bo‘yicha qilingan tahlil natijalariga ko‘ra, Farg‘ona-Oloy okrugi Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasi uchun *Scutellaria* turlari bo‘yicha Farg‘ona vodiysi florasining asosiy qaynoq nuqtalaridan biri sifatida baholandi.

5. To‘r tizimli xaritalash natijalariga ko‘ra, turlar xilma-xilligi va yig‘malar zichligi ilk bor aniqlandi, bunga ko‘ra *Scutellaria chaematochlora* juda tor tarqalish arealiga ega bo‘lib, tur to‘g‘risidagi ma‘lumot faqat bitta indeksda, *S. oxystegia* (38), *S. adenostegia* (23), *S. comosa* (22) keng tarqalgan turlar bo‘lib, 20 tadan ortiq indekslarda qayd etildi.

6. *Scutellaria* turkumining *S. adenostegia*, *S. ramosissima*, *S. intermedia*, *S. comosa*, *S. pycnoclada*, *S. ocellata*, *S. xanthosiphon*, *S. urticifolia*, *S. orbicularis*, *S. knorringiae*, *S. kugarti*, *S. physocalyx*, *S. andrachnoides* turlarining tog‘ tizmalarida tarqalishiga oid tadqiqotlar natijasida geografik areallari kengligiga aniqlik kiritildi.

7. Turlarning fitotsenotiplar tarkibida uchrash ko‘rsatkichiga ko‘ra faollik darajasi aniqlandi va 4 ta guruhga ajratildi: eng faol turlar (6 ta va undan ortiq florotsenotiplar), faol turlar (4-5 ta), o‘rtacha faol turlar (2-3 ta) hamda faollik darajasi past bo‘lgan turlar (1ta). *Scutellaria* turlari orasida eng faol 9% (2 tur), faol 13% (3 tur), o‘rtacha faol 39% (9 tur), passiv 39% (9 tur) ini tashkil etdi.

8. Turkum turlari vodiy o‘simliklar qoplaminin 4 tip, 8 kenja tip, 10 senotip, 17 formatsiya va 60 assotsiatsiyalari tarkibida tarqalganligi aniqlandi. Boshqa turdoshlariga nisbatan keng tarqalgan *S. comosa* va *S. adenostegianing* adir mintaqasi o‘simlik jamoalarida edifikatorlar qatorida ishtirok etuvchi 2 ta assotsiatsiyasi aniqlandi. Mazkur turlar uchun adir mintaqasi optimum balandlik ekanligi belgilandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.76.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АКБАРОВА МУХАЙЁ ХУСАНОВНА

**ТАКСОНОМИЯ, ГЕОГРАФИЯ И ФИТОЦЕНОЛОГИЯ РОДА
SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE), РАСПРОСТРАНЕННОГО
ВО ФЛОРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/B67.

Диссертационная работа выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.namdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тургинов Орзимат Турдиматович
доктор философии биологических наук
(PhD), старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Хамраева Диловар Толибджонова
доктор биологических наук, ведущий
научный сотрудник

Азимова Дилноз Эргашевна
доктор философии биологических наук
(PhD), доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится «15» июля 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30/12/2019/B/76/01 при Наманганском государственном университете. (Адрес: 160119, г. Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Зал заседаний Наманганского государственного университета. Тел.: (+99869) 228-85-01; факс (+99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 160107, город Наманган, улица Бабуршах, дом. 161. Тел.: (+99869) 228-85-01).

Автореферат диссертации разослан «4» июля 2024 года.
(реестр протокола рассылки №22 от «4» июля 2024 года).



А.Э.Зайнабидинов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

Х.Э.Эргашева
Ученый секретарь научного совета, по
присуждению ученых степеней, PhD
по биологическим наукам, доцент

Д.Б.Дехконов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня в мире большое внимание уделяется оценке видового состава, популяций и выявлению природных запасов местной флоры, научному обоснованию изменений популяций в результате внешних воздействий и анализу причин их сокращения, совершенствованию путей их сохранения и воспроизводства. В связи с этим создается международная система инвентаризации малоизученных, сокращающихся в результате внешних воздействий лекарственных растений. На фоне происходящих разнообразных изменений возникает необходимость определения видового состава местной флоры, проведения таксономического анализа на основе новых подходов. Большое значение имеет составление аннотированного современного синописа растений, определение горячих точек, изучение ареалов их распространения, обоснование их места в растительных сообществах, а также их внедрение в практику. При этом из актуальных задач следует выделить определение таксономического состава относительно редко распространенных видов растений, имеющих большое лечебное и хозяйственное значение, картирование их распространения и оценку современного состояния.

В мире ведутся научные исследования по выявлению и таксономическому анализу видового состава лекарственных растений, изучению их биологических особенностей, научному обоснованию изменений в популяции в результате внешних воздействий и анализу причин сокращения, а также совершенствованию путей их сохранения и воспроизводства. В связи с этим создана международная система инвентаризации малоизученных, сокращающихся в результате внешних воздействий лекарственных растений, в ней особое внимание уделяется разработке современных методов сохранения и воспроизводства природных ресурсов на основе оценки масштабов влияющих на них факторов.

В настоящее время в республике большое внимание уделяется выявлению флористического состава растений, биодокументированию с применением современных методов, оценке состояния запасов растений, созданию первичной базы для обоснования и мониторинга полученных новых лекарственных средств, видов, природные запасы и биологические особенности которых не изучены, разработке мер по сохранению редких и эндемичных видов. В стратегии развития Нового Узбекистана¹ на 2022–2026 годы определены задачи “Коренного пересмотра механизма охраны и защиты лесов”. В реализации этих задач важное научно-практическое значение имеют исследования, направленные на выявление таксономического состава и географических особенностей видов рода *Scutellaria* семейства Lamiaceae, распространенных в Ферганской долине, определение видового разнообразия и густоты сбора на основе сеточного картирования, обоснование их места в растительных сообществах,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы” от 28-января 2022-года

